



ON THE ISSUE OF FIGHTING AGAINST CORRUPTION (ON THE EXAMPLE OF THE BUKHARA REGIONAL CUSTOMS DEPARTMENT)

Mirjon Muminovich Rakhmatov

Independent Researcher, Bukhara State University

E-mail: rahmatov1778@gmail.com

Bukhara, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: customs, history, customs control, digitalization, border, corruption, corruption offenses, anti-corruption, conflict of interest, legality, systematization, openness and transparency, bribery, compliance control.

Abstract: This article expresses opinions regarding the digitalization of the Customs Authority of the Republic of Uzbekistan and the creation of a corruption-free system as a top priority.

Received: 24.01.26

Accepted: 25.01.26

Published: 26.01.26

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH MASALASIGA OID (BUXORO VILOYATI BOJXONA BOSHQARMASI MISOLIDA)

Mirjon Mo‘minovich Raxmatov

Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: rahmatov1778@gmail.com

Buxoro, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: bojxona, tarix, bojxona nazorati, raqamlashtirish, chegara, korrupsiya, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik, korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to‘qnashuvi, qonuniylik, tizimlilik, ochiqlik va shaffoflik, poraxo‘rlik, komplaens nazorat.

Annotatsiy: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Bojxona organini raqamlashtirish va korrupsiyadan xoli tizim yaratish – eng ustuvor vazifa ekanligi bilan bog‘liq fikr-mulohazalar bildirilgan.

ПО ВОПРОСАМ БОРЬБЫ С КОРРУПЦИЕЙ (НА ПРИМЕРЕ ТАМОЖЕННОГО ДЕПАРТАМЕНТА БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ)

Миржон Муминович Рахматов

Самостоятельный соискатель

Бухарского государственного университета

E-mail: rahmatov1778@gmail.com

Бухара, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: таможенное дело, история, таможенный контроль, цифровизация, граница, коррупция, коррупционные правонарушения, противодействие коррупции, конфликт интересов, законность, системность, открытость и прозрачность, взяточничество, комплаенс-контроль.	Аннотация: В данной статье высказаны мнения о том, что цифровизация Таможенного органа Республики Узбекистан и создание системы, свободной от коррупции, является приоритетной задачей.
--	--

Kirish. Korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar haqida so‘z yuritishdan avval, korrupsiya tushunchasining lug‘aviy ma’nosini anglab olish o‘rinli bo‘ladi. “Korrupsiya” lotincha (italyancha) so‘z bo‘lib, “corruptio” – “aynish, poraga sotilish” degan ma’noni anglatadi [1].

Adabiyotlar sharxi. Belgiyaning Bryugge shahrining Ratusha sudida niderland rassomi Gerard Davidning “Kambis jazosi” va “Poraxo‘r sudyaning terisi shilinishi” diptix rasmlari (Diptix (yunoncha: diptychos - buklama, ikki buklangan) - 1) qad. san’atda sirtiga mum surtilgan buklama yozuv taxtasi; 2) rangtasvir yoki bo‘rtma tasvir ishlangan ikki tabaqali buklama taxta; 3) bir mazmun bilan bog‘langan qo‘shitasvir, ikki kartina) joylashgan [2]. Diptix 1498-yilda yaratilgan. Unda: Odil sudlov tizimida korrupsiyani tugatish yuzasidan qadimgi fors davlati Ahamoniylar saltanatida (miloddan avvalgi VI – IV asrlar) shafqatsiz jazolar berish orqali olib borilgani qayd etilgan. Xususan, “Tarix otasi” Gerodotning xabar berishicha, Eron shohi Kir II ning o‘g‘li Kambis II davrida taraflarning biridan pora olgani uchun Sisamn ismli sudyaning tiriklayin terisini shilib, o‘tirgan kursisiga tortib qo‘yilgani hamda uning o‘g‘li shu vazifaga tayinlangani, toki u sudda ish ko‘rayotgan chog‘ida qaysi kursida o‘tirganini unutmasligi ko‘zda tutilgan. Ana shundan so‘ng, qadimgi fors sudyalari orasida birorta ham poraxo‘rlik holati aniqlanmagan.

Xalqaro nufuzli tashkilot BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasida korrupsiyaga eng qisqa, lekin keng qamrovli ta’rif quyidagicha berilgan: “Korrupsiya – bu shaxsiy maqsadlarda naf ko‘rish uchun davlat hokimiyatini suiiste’mol qilishdir” [3].

Li Kuan Yu, ya’ni Singapurning 1-bosh vaziri “Menda ikkita yo‘l bor edi: birinchisi o‘g‘irlash hamda do‘stlarim va qarindoshlarimni “Forbes” ro‘yxati (Forbes milliarderlar ro‘yxati – Forbes jurnali tomonidan 1987-yildan beri har yili mart oyida e’lon qilinadigan eng badavlat kishilar ro‘yxati hisoblanadi)ga kiritish [4], bu bilan xalqimni qup-quruq yer ustida qoldirish, ikkinchisi – bu xalqimga xizmat qilish va mamlakatni dunyoning eng yaxshi mamlakatlar o‘ntaligiga kiritish. Men ikkinchisini tanladim...”,- degandi. Xullas, uzoq o‘tmishdan va hozirgi

davrdan korrupsiya va uning jamiyat hayotidagi xavf-xatarlari haqida o'nlab misollar keltirish mumkin. Korrupsiyaviy jinoyatlar kelib chiqishining antropologik omillaridan biri bu insonning ziddiyatli tabiati, uning miyasi va tanasida ezgulik va yovuzlikning doimiy kurashi, insonning ko'proq foyda olishga intilishi va hokazolar hisoblanadi.

Muhokama va natijalar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M.Mirziyoyev 2022-yil 17-fevral kuni bojxona tizimini yanada isloh qilish va korrupsiyadan xoli sohaga aylantirish masalalari bo'yicha yig'ilish o'tkazgandi. Ushbu huquqni muhofaza qilish organlarining Yangi O'zbekiston taraqqiyotida alohida o'ringa egaligi mamlakat rahbarining "Bojxona boshqa davlat idoralariga namuna bo'lishi kerak! ", - degan fikri orqali ham o'z isbotini topmoqda [5].

Buning uchun zamonaviy komplaens tizimi joriy etildi. 2022-yil 1-maydan boshlab, bojxona yuk deklaratsiyasini rasmiylashtirish postlardan chiqarildi va tadbirkorlik bevosita muloqotsiz, masofaviy amalga oshirildi. 2022-yil 1-iyuldan tovarlarning kodi va qiymatini belgilash, bojxona ko'rigini o'tkazish, imtiyozli deklaratsiya rasmiylashtirishda korrupsion xavfni avtomatlashgan tizim orqali aniqlash boshlandi. 2022-yil 1-sentabrdan esa, barcha elektron bojxona xizmatlari "Yagona darcha" tizimi orqali ko'rsatila boshlandi. Korrupsiyani oldini olish uchun xodimlarning moddiy ta'minoti va ijtimoiy himoyasiga ham alohida e'tibor zarur. Shu bois, bundan buyon bojxona xodimlarining faoliyati samarasiga qarab, ish haqiga qo'shimcha ustama haq to'lanadi. O'lis va sharoiti og'ir postlarda ishlayotganlar ham moddiy qo'llab-quvvatlanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati – bu xodimlar orasida hamda jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyati darajasini oshirish maqsadida bojxona organlari xodimlarining yuqori axloqiy me'yorlariga sodiqligini, shuningdek, bojxona xodimlari faoliyatida korrupsiyaviy huquqbuzarliklarga murosasizlik va ularni sodir etishga yo'l qo'ymaslikni aks ettiradi.

O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 4-yanvardan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-son Qonuni kuchga kirgani bu boradagi eng muhim qadam bo'ldi. Davlat rahbari tashabbusi bilan qabul qilingan mazkur qonun korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga solishda asos yaratdi. Davlat organlari, tashkilotlar va fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning namoyon bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish orqali jamiyatda korrupsiyaning barcha shakllariga nisbatan murosasiz munosabat qaror topmoqda. 34 moddadan iborat mazkur Qonunda, avvalo, korrupsiya bilan bog'liq tushunchalar berilgan. Korrupsiya shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy

manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishdir [6].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 27-may kuni imzolangan "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"

PF-5729-son farmon bu boradagi izchil sa'y-harakatlarning mantiqiy davomi bo'lib, bundan ko'zlangan asosiy maqsad O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligini yanada oshirish, eng yuqori darajadagi qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini yaratish, mamlakatning xalqaro maydondagi ijobiy imijini oshirish va mustahkamlashga qaratilgan [7].

Mazkur Farmon bilan 2019–2020-yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi qabul qilinib, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasining yangilangan tarkibi tasdiqlandi. Farmon ijrosi doirasida Davlat bojxona qo'mitasida Raisning birinchi o'rinbosari rahbarligida va hududiy boshqarmalarda esa bevosita boshqarma boshlig'i rahbarligida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha komissiyalar tashkil etildi.

Ayni kunlarda Yangi O'zbekistonning zamonaviy bojxonasida yangicha fikrlaydigan, bugungi kun talabi bilan tafakkur qiladigan, o'z qasamyodiga, qolaversa, bojxonachi qasamyodiga sodiq qolib, o'z ona-Vatani, uning iqtisodiy manfaatlarini yo'lidagi har qanday tahdidlarga munosib javob bera oladigan, sog'lom fikrli xodimlarni shakllantirishda Buxoro viloyati bojxona boshqarmasining o'z o'rnini bor. Umuman olganda, milliy bojxona tizimi shakllanishining ilk kunlaridayoq sidqidildan o'z burchlarini ado etayotgan xodimlarning shaxsiy xavfsizligini ta'minlashda ichki tarkibiy tuzilmasi tashkil topgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991-yil 25-oktabrdagi «O'zbekiston Respublikasi Bojxona Qo'mitasini tashkil etish to'g'risida»gi

PF-284-son Farmoniga asosida Bojxona qo'mitasining Buxoro viloyati bo'yicha boshqarmasi tashkil etilgan [8]. Boshqarmaning hozirgi kundagi tarkibiy tuzilmasida 19 ta bo'lim, sho'ba va guruhlar, 3 ta chegara va 2 ta TIF bojxona postlari hamda 2 ta bojxona posti punktlari bor.

Shu bilan birga, Buxoro viloyati bojxona boshqarmasining shaxsiy xavfsizlik bo'limi xodimlari bojxonachini O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash vazifasini samarali va sifatli amalga oshirishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish maqsadida sohaga qarashli infratuzilma obyektlarining hamda shaxsiy tarkibning o'z xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, ularning yaqin qarindoshlariga haqiqiy xavf mavjud bo'lgan hollarda

ularning muhofazasini tashkil etish, bojxona organlarida korrupsiyaning oldini olish, unga qarshi kurashish, xizmat va mehnat faoliyatini mustahkamlash singari hamda o'ziga xos yondashuv talab etadigan faoliyatni amalga oshirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 25-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o'rnini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4210-son va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-apreldagi "Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda ma'muriy tartib-taomillarni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4297-son qarorlari, 2019-yil 27-maydagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5729-son farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan dastur asosida O'zbekiston Respublikasi Buxoro viloyati Adliya boshqarmasi, Savdo-sanoat palatasi Buxoro viloyati hududiy boshqarmasi hamda Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi Buxoro viloyati hududiy bo'limi bilan hamkorlikda xodimlar tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishini oldini olishga va korrupsiyaga qarshi kurashish borasida xodimlarning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan va boshqa tadbirlar belgilangan aniq chora-tadbirlar asosida olib borilmoqda.

Jumladan, 2022-yil mobaynida boshqarma shaxsiy tarkibi bilan 101 marta umumiy yig'ilish o'tkazilgan. Mazkur davrda DBQning 2017-yil 14-iyuldagi

380-son buyrug'i bilan tasdiqlangan Yo'riqnoma talabi asosida boshqarmaning

170 nafar xodimi bilan yakka tartibda tarbiyaviy-profilaktika suhbatini olib borilib, bayonnoma rasmiylashtirilgan [9]. Bundan tashqari, DBQning 2012-yil 29-martdagi "Davlat bojxona xizmati organlarida xufiyona tadbirlarini o'tkazish Tartibini tasdiqlash to'g'risida"gi 84-son buyrug'i ijrosi bo'yicha bojxona postlarida xizmatning to'g'ri tashkil etilishi, bojxona nazoratini to'laqonli o'tkazilishi hamda xodimlarning hushyorligini nazorat qilish maqsadida, boshqarma ma'muriy binosi hamda bojxona postlarida 167 marotaba oshkora va xufiyona tekshiruvlar o'tkazilgan.

2022-yilda o'tkazilgan xizmat tekshiruvlari yakuni va boshqarmaning yig'ilish bayonlari asosida 82 (70) nafar xodimlari intizomiy jazoga tortilgan. Shundan, shaxsiy xavfsizlik bo'limi tomonidan boshqarmaning sohaviy tuzilmalari bilan hamkorlikda 21 (15) ta holatda boshqarma xodimlariga nisbatan xizmat tekshiruvlari o'tkazilib, tekshiruvi yakuni bo'yicha 30 (24) nafar xodim intizomiy jazoga tortilgan [10].

2022-yil 31-dekabr holatiga, DBQning shaxsiy tarkib bo'yicha tegishli buyruqlari bilan Buxoro viloyati bojxona boshqarmasidan xizmatni davom ettirish uchun boshqa hududiy boshqarmaga 24 nafar xodimlar rotatsiya qilingan, boshqa hududiy boshqarmalardan Buxoro

viloyatiga 22 nafar xodimlar boshqarmaga ixtiyoriga yuborilgan. Shuningdek, 164 nafar (212 nafar) xodimlarning lavozimlari o'zgartirilgan, shundan 45 nafari (12 nafar) yuqori lavozimlarga tayinlangan.

2022-yilning 31-dekabr holatida 16 nafar (6 nafar) xodim bojxona organlaridan bo'shatilgan. Shundan, 8 nafari shaxsiy iltimosiga ko'ra, 3 nafari kasalligi bo'yicha, 4 nafari sudning qonuniy kuchga kirgan hukmiga asosan va 1 nafari intizomiy jazo tariqasida xizmatdan bo'shatilgan. 2022-yilning 31-dekabr holatida jami 82 (72) nafar xodimga nisbatan intizomiy jazolar qo'llanilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.08.2021-yildagi PF-2608-sonli farmoniga asosan, "Shuhrat" medali bilan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari mehnat va jangovar xizmatlari, samarali davlat, ijtimoiy va ijodiy faoliyatlari uchun Buxoro viloyati bojxona boshqarmasi xodimlari orasidan 1 nafari mukofotlangan, Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va xavfsizligini ta'minlash, bojxona tizimini rivojlantirishga sohada erishilayotgan yutuqlarga qo'shayotgan hissasi, xizmat vazifalarini vijdonan va namunali bajarganligi uchun, shuningdek yosh xodimlarni tayyorlashga munosib hissa qo'shayotgan 6 nafar Buxoro viloyati bojxona boshqarmasi xodimlari "O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining o'ttiz yilligi" ko'krak nishoni bilan taqdirlanganlar [11].

2022-yilda, xizmatda erishgan yuqori ko'rsatkichlari uchun 92 nafar xodimlar (55 nafar) rag'batlantirilgan, 108 nafar (25 nafar) xodimlarga navbatdagi maxsus unvonlari berilgan. Shu bilan birga, 11 nafar xodimlarning 12 nafar farzandlariga oliy ta'lim muassasalariga imtiyozli ravishda kirishlari uchun kvotalar berilgan [12]. Bojxona organlarida axloqiy-ruhiy muhitni sog'lomlashtirish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish choralari ko'rilmogda. Bunda asosiy e'tibor xodimlarni jazolashga emas, balki, salbiy holatlarni barvaqt oldini olishga (preventiv choralar) qaratilmogda. Birgina misol, "Korrupsiyaviy xavflarni boshqarish" dasturi orqali manfaatlar to'qnashuvini aniqlash mexanizmlari avtomatlashtirilganligi natijasida, 2024-yil fevral oyida 26 nafar xodimlar qonunchilikka zid ravishda tadbirkorlik faoliyati bilan (korxonalarda ta'sischi va rahbar bo'lganligi) shug'ullanayotganligi aniqlanib, bu kabi holatlar kelgusida takrorlanishini oldini olish choralari ko'rildi. O'z navbatida xodimlar tomonidan salbiy xatti-harakatlar sodir etilishini oldini olish maqsadida umumiy tartibda

367 marotaba, yakka tartibda 810 marotaba profilaktik tarbiyaviy ishlar olib borildi.

Mazkur yo'nalishda ko'rilayotgan amaliy chora-tadbirlar natijasida:

- 15.07.2022-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida reyting baholash yakunlariga ko‘ra Bojxona qo‘mitasi faoliyati ijobiy baholanib kelinmoqda (91 ball bilan 1-o‘rin);

- 23.09.2022-yil Bojxona qo‘mitasi "II Toshkent Aksilkorrupsiyaviy" forumida “Komplaens – nazorat” tizimini samarali joriy etgan tashkilot sifatida e‘tirof etildi;

- 05.09.2023-yil respublika miqyosida 44 ta vazirlik va idoralar o‘rtasida raqamlashtirish bo‘yicha idoralararo reyting baholash tizimida 1-o‘rinni egalladi (94 ball).

Darhaqiqat – adolat zahirida iqtisodiy xavfsizlik yotadi. Bojxona organlari shaxsiy tarkibi buni anglab, xizmat faoliyatida barcha kuch va vositalarni mamlakat taraqqiyoti uchun safarbar etmoqda. 2024-yilning yanvar-dekabr oylari davomida jami 526 nafar xodimga nisbatan bojxona organlari intizom nizomi talablari asosida intizomiy jazo choralari qo‘llanilgan [13]. 2023-yildan bojxona organlarida “Bojxona xodimi” va “Korrupsion xavflarni boshqarish” tizimlari ishlab chiqilgan bo‘lim, korrupsiyaga oid qonunchilik va ichki idoraviy talablarni buzgan barcha xodimlarga qo‘llanilgan jazolar ushbu tizimlarga onlayn qayd etib borilmoqda.

Bojxona qo‘mitasining 2021-yil 29-noyabrda 259-son buyrug‘i bilan “Bojxona organlari faoliyatini baholash va samaradorligini yanada oshirish chora - tadbirlari to‘g‘risida”gi buyrug‘i bilan bojxona xizmati organlari tuzilmalari faoliyatini o‘rganish va baholash guruhi tarkibi tasdiqlangandi. Faoliyatga joriy qilingan “Korrupsiyaviy xavflarni boshqarish dasturi” bojxona organlarida xodimlar faoliyatidagi korrupsiyaviy holatlar, yopiq sxemalar, shubhali vaziyatlar va umuman korrupsiyaga imkon yaratishi mumkin bo‘shliqlar avtomatik aniqlanib, ularni minimallashtirish va bartaraf etish yuzasidan har chorakda ichki nazorat tuzilma xodimlarga topshiriq berib bormoqda.

2024-yil 11-aprel kuni Bojxona qo‘mitasi “Toshkent-AERO” ixtisoslashtirilgan bojxona kompleksining qayta rekonstruksiya qilingan ma‘muriy binosining tantanali ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi. Tadbirda Bojxona qo‘mitasi Raisi ishtirok etib, soha xodimlariga halol ishlashlari va korrupsiyaga nisbatan murosasiz bo‘lishlari lozimligini ta’kidladi [14]. 2024-yil 21-oktabr kuni Bojxona qo‘mitasida faoliyatning 9 oylik yakunlariga bag‘ishlangan Hay‘at yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Unda tizimda korrupsiyaga qarshi olib borilayotgan kurash yuzasidan ma’lumot berildi [15]. 2024-yil 24-dekabr kuni Bojxona qo‘mitasida 2024-yildagi faoliyat sarhisobi va 2025-yildagi ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan Hay‘at yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Hay‘at yig‘ilishida xodimlarga korrupsiyaga qarshi murosasiz kurash zarurligi yuzasidan murojaat bo‘lib o‘tdi. Yig‘ilish ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishi ta’minlandi [16].

Bizningcha, korrupsiyaga qarshi kurashish uchun quyidagi 4 ta ta'sir vositasi baravar qo'llanilishi kerak.

Dastlabki, halol ishlashni rag'batlantiruvchi ta'sir. Bunda: munosib maosh, korrupsiya haqida xabar bergan shaxslarni rag'batlantirish, halol insonni yuqori lavozimlarga tayinlash prinsipi tatbiq etiladi.

Ikkinchidan, korrupsiyaga sharoit omillarini to'suvchi ta'sir. Bunda davlat xizmatlarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali ko'rsatib borish yo'li bilan inson omilini qisqartirish, huquqbuzarliklarni qayd etishning elektron tizimi, davlat nazoratini maqbullashtirish, davlat xizmatchilarini lavozimga tayinlashning tanlov asosida o'tkazilishi, davlat xaridlarining belgilangan shaffof tizimidan foydalanish hamda davlat xususiy sheriklikning qonunda belgilangan qoidalariga rioya etish, me'yoriy-huquqiy hujjatlardagi korrupsion normalarni bartaraf etish, tadbirkorlik faoliyati uchun byurokratik to'siqlarni bekor qilish, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish, sudlarning mustaqilligini ta'minlash kabilar muhim rol o'ynaydi.

Uchinchidan, korrupsiyaga qarshi ma'rifiy ta'sir. Bunda shaxsda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, diniy ulamolar tomonidan korrupsiyaga qarshi diniy-ma'rifiy da'vat olib borish maqsadga muvofiq.

To'rtinchidan, korrupsiyaga qarshi nazorat tizimi. Bunda davlat organlari va mansabdor shaxslar ustidan kuchli jamoatchilik nazorati, davlat organlari faoliyatining ochiqligi, mansabdor shaxslarning xalq oldida hisobdorligi, korrupsiyani fosh etish borasida professional tadqiqot olib bora oladigan nodavlat notijorat tashkilotlari hamda "jurnalistik tekshiruv" lari, korrupsiya holatlarining "latent" bo'lib qolishining oldini olish, korrupsiya uchun javobgarlikning muqarrarligi ta'minlanishi, korrupsiya yo'li bilan chiqarilgan qarorlarning bekor bo'lishi, davlat organlarida doimiy ravishda olib boriladigan "korrupsiyaga qarshi ichki audit" tizimining samarali ishlashi talab etiladi.

Umuman olganda, korrupsiyaga qarshi kurashish faqatgina davlat organlarining emas, balki bu borada jamoatchilikning ham faol ishtirok etishi kutilgan samarani beradi.

Xulosa. Bugungi globallashuv sharoitida korrupsiya masalasi nafaqat mamlakatlarning, balki butun jahon hamjamiyatining dolzarb muammosiga aylangan. Zero, korrupsiya nafaqat iqtisodiy taraqqiyotga to'siq bo'ladi, balki jamiyatda adolat tamoyillarining buzilishiga, ishonchning susayishiga olib keladi. Shu bois unga qarshi kurashish birgina davlat organlarining vazifasi emas, balki har bir fuqaroning burchidir. Korrupsiya mohiyatiga ko'ra, davlat va jamiyat imkoniyatlarini shaxsiy manfaat yo'lida suiiste'mol qilishdir. Bu illat iqtisodiy o'sishni

sekinlashtiradi, sarmoya kiritish muhitini izdan chiqaradi, insonlarning teng huquqliligiga putur yetkazadi. Eng muhimi, jamiyat a'zolari davlat organlariga bo'lgan ishonchini yo'qotadi. Iqtisodiy taraqqiyotning poydevori bo'lgan shaffoflik va adolat esa korrupsiya bor joyda baribir zaiflashadi.

So'nggi yillarda bojxona organlarida ham korrupsiyaning oldini olish, xodimlarning halollik va mas'uliyatini mustahkamlash borasida qator tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mazkur yo'nalishda profilaktik va nazorat ishlari muntazam kuchaytirilib, xodimlar o'rtasida huquqiy madaniyatni yuksaltirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuni unutmaslik kerakki, korrupsiyaga qarshi kurashning samarasi bevosita jamiyatning faolligiga bog'liq. Har bir fuqaro o'z huquqini bilishi, qonunga xilof harakatlarga ko'z yumib turmasligi, halollik talabini qo'yishi lozim.

Zero, korrupsiyaning ildizi ko'pincha "ko'z yumishga", "mening ishim emas" degan loqaydlikka borib taqaladi. Korrupsiya jamiyat taraqqiyotini sekinlashtiruvchi eng xavfli illatlardan biridir. Uni yengishda faqat davlat organlari emas, balki har bir fuqaroning faol ishtiroki zarur. Halollik, qonuniylik va adolat tamoyillari ustuvor bo'lgan jamiyatgina taraqqiyotga erishadi. Shunday ekan, korrupsiyaga qarshi kurashish – barchamizning burchimizdir.

Yuqoridagi fikrlardan kelin chiqib, quyidagi taklif bildiriladi:

Bojxona xodimini korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olish va unga qarshi kurashishdagi faol ishtiroki, yuksak kasbiy mahorati, qonuniylik talablariga rioya etishi hamda qasamyodiga sodiq bo'lish borasida namuna ko'rsatganligi uchun qo'llab-quvvatlash maqsadida uni moddiy rag'batlantirish, ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, yuqori lavozimlarga yoki davlat mukofotlariga tavsiya qilishda milliy qonunchilikni asosiy mezon sifatida inobatga olish maqsadga muvofiq hisoblanadi..

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi Birinchi jild, "O'zME" davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent, 2000-yil – www.ziyouz.com kutubxonasi.
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Diptix> - murojaat 01.09.2025-yil.
3. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi kurashish Konvensiyasi, 2003-yil, // [Elektron manba]. URL: <https://lex.uz/docs/-1461329> (United Nations Convention Against Corruption); URL:<https://www.transparency.org/en/cpi/2020/index/nzl> - murojaat 01.09.2025-yil.
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Dunyoning_eng_badavlat_kishilari_ro%CA%BByxati - murojaat 01.09.2025-yil.

5. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida bojxona ma'murchiligini yanada takomillashtirish va sohani korrupsiyadan xoli tizimga aylantirish bo'yicha ustuvor vazifalar yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishdagi nutqidan. 2022-yil 17-fevral.

6. O'zbekiston Respublikasining 03.01.2017-yildagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-son Qonuni // <https://lex.uz/uz/docs/-3088008/> (Law of the Republic of Uzbekistan on Combating Corruption) - murojaat 02.09.2025-yil.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5729-son Farmoni.

8. M.M. Raxmatov «Mustaqil O'zbekistonda Davlat bojxona tizimi shakllanishining me'yoriy-huquqiy asoslari xususida» tarix fanlari bo'yicha mustaqil izlanuvchi (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan ilmiy maqoladan. – Xiva: Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi, 2025-y. 54-b.

9. Muallifning Buxoro viloyati bojxona boshqarmasi xodimi

D.B. Ravshanov bilan shaxsiy muloqoti; 2025-yil 03-sentabr.

10. Buxoro viloyati bojxona boshqarmasi joriy arxivi 2023-yil. Yig'ma jild №4/1-1: – 36-37-sahifa.

11. Muallifning Buxoro viloyati bojxona boshqarmasining inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish sho'basi bosh inspektori, kapitan

T.T. Raximov bilan shaxsiy muloqoti; 2025-yil 04-sentabr.

12. Buxoro viloyati bojxona boshqarmasi joriy arxivi 2023-yil. Yig'ma jild №4/1-1: – 38-sahifa.

13. Elektron manba, <https://customs.uz/oz/page/bozhkhona-qomitasining-korrupsiyaga-qarshi-kurashish-boyicha-komissiyasi>.

14. <https://t.me/customschannel/35016> - murojaat 04.09.2025-yil.

15. <https://t.me/customschannel/39848> - murojaat 04.09.2025-yil.

16. <https://t.me/customschannel/41742> - murojaat 04.09.2025-yil.